



**TEZIS MAVZU: TRANSCHEGARAVIY NIZOLARDA SUN'IY
INTELLEKT ISHTIROKINING KOLLIZION VA YURISDIKSIYA BILAN
BOG'LIQ MUAMMOLARI**

Muxtorov Nodir Komil o'g'li

Muallif: Toshkent davlat yuridik universiteti

Xalqaro tijorat huquqi yo'nalishi magistranti

Email: muxtorov.nodir@inbox.ru

Mavzu dolzarbligi. Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining global miqyosda kengayib borayotgani xalqaro xususiy huquqda yangi turdagi huquqiy murakkabliklarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, SI ishtirokidagi transchegaraviy shartnomalar va avtomatlashtirilgan faoliyat natijasida vujudga kelayotgan nizolarda yurisdiksiya va kollizion normalarni aniqlash tobora qiyinlashib bormoqda. An'anaviy shartnomaviy va delikt huquqiga asoslangan mexanizmlar bu murakkabliklarni to'liq hal qilishga javob bera olmayapti.

Tadqiqot maqsadi. Transchegaraviy nizolarda SI ishtirokining huquqiy tafsilotlarini, ayniqsa yurisdiksiya va kollizion normalar bilan bog'liq muammolarni tahlil qilish, mavjud yondashuvlarni solishtirish va O'zbekiston milliy qonunchiligi uchun ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish..

Asosiy muammolar.

- Yurisdiksiya noaniqligi: SI yordamida amalga oshirilgan avtomatik faoliyatlar natijasida yuzaga kelgan nizo qaysi davlat sudida ko'rilishi kerakligi noaniq qolmoqda.
- Kollizion bo'shliqlar: Shartnomaviy yoki delikt munosabatlariga SI aralashgan hollarda qaysi mamlakat huquqi qo'llanishi lozimligi masalasida yagona xalqaro konvensiya yo'q.
- Huquqiy vakolat va taraflarning mavqei: SI qaror qabul qilgan hollarda, taraflar kim deb hisoblanishi masalasida aniq yondashuv yo'q.



- Javobgarlik doirasining aniqlanmasligi: SI mustaqil ravishda sababchi bo'lgan zarar uchun javobgarlik kimga yuklanishi huquqiy bahsga sabab bo'lmoqda.

Takliflar

Yangi kollizion normalar ishlab chiqish: Xalqaro miqyosda mavjud shartnomaviy va delikt munosabatlari manbalarni SI holatiga moslab tahlil qilish, ulardan ayrimlarini yangilash va SI ishtirokidagi shartnomaviy hamda delikt nizolari uchun maxsus kollizion qoidalarni ishlab chiqish.

Model qonun tashabbusi: O'zbekiston tomonidan ilgari surilgan SI etikasi bo'yicha model qonunni xalqaro yurisdiksiya va kollizion muammolarni qamrab oluvchi formatda takomillashtirish va xalqaro normalarga aylantirish.

Milliy qonunchilikni moslashtirish: O'zbekiston SI sohasidagi qonunchiligini Yevropa Ittifoqining Sun'iy intellekt akti asosida boyitishi, xususan transchegaraviy nizo holatlari uchun yurisdiktsion mezonlarni aniq belgilashi lozim.

Ilmiy yangiliklari. SI ishtirokida yuzaga keladigan transchegaraviy nizolarning yurisdiktsion va kollizion jihatlari tizimli tahlil qilindi;

AQSh, Yevropa Ittifoqi va Yaponiya huquqiy amaliyoti solishtirildi;

O'zbekiston qonunchiligida mavjud imkoniyatlar baholandi va uni takomillashtirish bo'yicha asosli takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar. sun'iy intellekt, transchegaraviy nizo, yurisdiksiya, kollizion normalar, xalqaro xususiy huquq, etik tamoyillar, O'zbekiston.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF–6079-son Farmoni // www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Parlamentlararo Ittifoqning 150-Assambleyasidagi nutqi. – <https://president.uz/oz/lists/view/8034>



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd July, 2025

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi. “Aholi huquq va erkinliklari kafolatlari yanada kuchaytiriladi” // <https://parliament.gov.uz/news/aholi-huquq-va-erkinliklari-kafolatlari-yanada-kuchaytiriladi>
4. UNESCO. Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence. Paris, 2021. – <https://www.unesco.org/en/artificial-intelligence/recommendation-ethics>
5. Dornis, K.-N. “Artificial Intelligence and the Private Law: Theoretical and Practical Questions”. // European Review of Private Law, 2023, Vol. 31(2), pp. 193–217. — <https://kluwerlawonline.com/journalarticle/European+Review+of+Private+Law/31.2/ERPL2023013>